



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-iyun 2019 yil


RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **4,5 trln. so'm**, o'sish sur'ati **2,3 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **110,1 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **100,4 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 4 473,4 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,3%ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 4 326,8 mlrd.so'mni (102,5%), o'rmon xo'jaligi –110,9 mlrd.so'mni (102,3 %), baliq xo'jaligi –35,7 mlrd.so'mni (77,6 %) tashkil qildi.

1-diagramma


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd. so'm)



Xususan yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol (104,9 foiz), Sharof Rashidov (103,2 foiz), va Zomin (103,0 foiz) tumanlarida kuzatildi. Arnasoy (99,7 foiz), Zafarobod (100,0 foiz), Paxtakor (100,1 foiz) va Do'stlik tumanlarida (100,8 foiz) esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

2-diagramma

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Jizzax viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Baxmal tumanining ulushi 14,0 foizni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari mos ravishda 13,0 foiz va 11,7 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Jizzax shahrida (2,3 foiz) va Yangiobod tumani (3,0 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 110,4 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 100,4 foizni tashkil qildi.


Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 76,9 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 22,0 %i – fermer xo'jaliklariga, 1,1 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

3-diagramma

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, %da



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, barcha hududlarda eng yuqori ko'rsatkichlar dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 192,2 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 110,1 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 27,7 %ni tashkil qildi.



1-jadval


2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	456,0	114,3	438,2	114,2	9,3	72,6	8,6	354,5
Kartoshka	9,2	103,9	0,9	138,5	8,3	101,1	0,2	105,6
Sabzavotlar	50,2	108,6	13,2	138,0	36,9	100,9	0,1	103,1
Poliz	2,9	117,0	0,7	215,0	2,2	101,6		
Meva va rezavorlar	15,1	116,8	3,0	333,0	12,0	100,4	0,5	104,0
Uzum	0,5	102,8	0,02	46,3	0,5	107,4		

Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar – iyun oylarida 455 672 tonna (114,2 foiz) boshqoli don ekinlari, shundan 428 644 tonna (113,7 foiz) bug'doy, 50 249 tonna (108,6 foiz) sabzavotlar, 15 131 tonna (116,8 foiz) meva va rezavorlar, 9 236 tonna (103,9 foiz) kartoshka, 2 866 tonna (117,0 foiz) poliz, 554 tonna (102,8 foiz) uzum mahsulotlari yig'ib olindi.

4-diagramma


Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi %da



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 90,0 foizi, sabzavotlarning 73,5 foizi, oziqbop polizning 75,0 foizi, meva va rezavorlarning 79,6 foizi, uzumning 96,6 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 96,1 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (ming t)




Kartoshka (ming t)




Sabzavotlar (ming t)




Poliz (ming t)



Mevalar va rezavorlar (ming t)



Uzum (ming t)



Chorvachilik



2019 yilning yanvar-iyunida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3 119,2 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,4 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 72,3 %ni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 84,1 ming tonna go'sht (1,0 %ga), 266,4 ming tonna sut (1,1 %ga), 2,7 ming tonna jun esa (7,2 %ga), 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan ko'p ishlab chiqarildi. 127,1 mln.dona tuxum (5,8 %ga) kam ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	84,1	101,0	1,6	183,8	81,9	100,1	0,5	100,5
Sut, ming t	266,4	101,1	4,9	134,9	260,8	100,6	0,7	101,3
Tuxum, mln. dona.	127,1	94,2	5,9	284,1	78,8	95,5	42,4	84,2
Jun, ming t	2,7	107,2	0,3	187,7	2,2	101,6	0,2	106,3
Qorako'l, ming dona.	2,6	114,2	2,2	112,3	-	-	0,3	104,6
Pilla, ming t	0,6	106,4	0,6	108,5	-	-	0,02	64,9

6-diagramma

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, %da



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 97,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 97,9 %i, tuxumning 62,0 %i, junning 83,5 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Qorako'l terining 85,1 %i esa fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

7-diagramma

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Go'sht (ming t)



Sut (ming t)



Tuxum (mln. dona)



Pilla (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 873,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 248,2 ming boshga, qo'y va echkilar – 2 110,9 ming boshga, parrandalar – 3 343,9 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 5,5 ming boshga (0,6 %ga), shu jumladan sigirlar – 3,0 ming boshga (1,2 %ga), qo'y va echkilar – 59,6 ming boshga (2,9 %ga), parrandalar – 192,9 ming boshga (6,1 %ga) ko'paydi.

3-jadval

2019 yilning 1 iyul holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli								
qoramollar	873,1	100,6	36,6	111,5	822,9	100,0	13,6	112,9
<i>shu jumladan</i>								
sigirlar	248,2	101,2	10,6	117,5	234,3	100,1	3,3	157,8
Qo'y va echkilar	2110,9	102,9	337,7	108,9	1581,4	98,9	191,8	134,5
Parrandalar	3343,9	106,1	249,6	79,0	1983,7	101,0	1110,7	127,7


2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,2 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 16,0 %i fermer xo'jaliklariga, 74,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 9,1 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 7,5 %i fermer xo'jaliklariga, 59,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 33,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2019 yilning 1 iyul holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)



shundan, sigirlar (ming bosh)






Qo'y va echkilar (ming bosh)






Parrandalar (ming bosh)



Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi



-  Fermer xo'jaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-230-83-49
• 71-230-83-53